

OZIQ OVQATGA DOIR REALIYALARNING TARJIMA QILISH USULLARI

M.X. Umarova

O'zDJTU katta o'qituvchisi

K.A.Sheraliyev

O'zDJTU magistranti

ANNOTATSIYA: *Tarjima jarayonida realiyalarni to'g'ri yetkazib berish muhim hisoblanadi. Ko'plab realiya haqidagi maqolalardan farqli ravishda bu maqolada realiyalarni tarjima qilishni nazariy emas, balki amaliy jihatdan ko'rib chiqildi. Yapon tilidagi realiyalarni tarjimashunoslikning qaysi usulida tarjima qilsa samarali bo'lishi haqida ilmiy izlanish qilindi. Muallif ushbu ishda o'zbek tilidagi oziq-ovqatga bog'liq bo'lgan 5 ta realiyani tanlab oldi va buni yaponlar tarjima jarayonida ko'p ishlatadigan 4 xil tarjima qilish usuli 借用翻訳(tarjima qilinayotgan tilning madaniy o'ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so'z bilan berish), 同化(realiyani tarjima qilinayotgan tildagi realiya bilan almashtirish usuli), 加筆(qisqartirish usuli), 解説(realiyalarni tavsiflab, izohlash yo'li bilan tarjima qilish)da tarjima va analiz qildi. Bularning barchasi muallifning ishidir.*

Kalit so'zlari: *tarjima, realiya, 借用翻訳(tarjima qilinayotgan tilning madaniy o'ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so'z bilan berish), 同化(realiyani tarjima qilinayotgan tildagi realiya bilan almashtirish usuli), 加筆(qisqartirish usuli), 解説(realiyalarni tavsiflab, izohlash yo'li bilan tarjima qilish)*

АННОТАЦИЯ: *Правильная передача реалий в процессе перевода является важным аспектом. В отличие от множества статей, посвященных реалиям, в данной статье рассматривается не теоретический, а практический подход к переводу реалий. Проводится научное исследование, какой метод перевода японских реалий будет наиболее эффективным. Автор выбрал 5 реалий и проанализировал их с использованием 4 методов перевода, часто применяемых японскими переводчиками: 借用翻訳 (перевод с использованием подходящих слов, соответствующих культурной специфике целевого языка), 同化 (замена реалий на эквивалентные реалии целевого языка), 加筆 (сокращение), 解説 (перевод с описанием и пояснением реалий). Все эти методы являются работой автора.*

Ключевые слова: *перевод, реальность, 借用翻訳 (перевод с использованием подходящих слов, соответствующих культурной специфике целевого языка), 同化*

(замена реалий на эквивалентные реалии целевого языка), 加筆 (сокращение), 解説 (перевод с описанием и пояснением реалий).

ABSTRACT: *Correctly conveying realities during the translation process is an important aspect. Unlike many articles on realities, this article looks at the translation of realities not from a theoretical, but a practical perspective. A scientific study is conducted to determine which method of translating Uzbek realities would be most effective. The author selected five food-related realities from the Japanese language and analyzed them using four translation methods commonly employed by Japanese translators: 借用翻訳 (using words that match the cultural specificity of the target language), 同化 (replacing the reality with an equivalent reality in the target language), 加筆 (simplification), 解説 (describing and explaining realities during translation). All of these methods are part of the author's work.*

Keywords: *translation, reality, 借用翻訳 (using words that match the cultural specificity of the target language), 同化 (replacing the reality with an equivalent reality in the target language), 加筆 (simplification), 解説 (describing and explaining realities during translation).*

Hozirgi kunda O'zbekistonda juda ko'p xorijiy tillar o'rganilmoqda va bu sohada bir qancha maxsus kurslar, til markazlari, oliy o'quv yurtidagi fakultetlar faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, yapon tilini ham har tomonlama chuqur o'rganish borasida juda ko'p foydali ishlar qilinmoqda. Oliy o'quv yurtlarida yapon tilini nafaqat muloqot uchun, balki ilmiy tadqiqotlar olib borish darajasida keng o'rganilmoqda. Yapon tilini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish dunyo tilshunoslarining e'tiborida desak, mubolag'a bo'lamaydi. Hozirgi kunda yapon tili jahonning 130 ta davlatida o'rganilmoqda, O'zbekiston yapon tilini o'ganuvchi o'quvchilar soni jihatidan 35-o'rinda turadi¹. O'zbekistonda tarjima qilingan yapon asarlari juda ham oz. Bu yo'nalishda izlanishlar olib borish bizning mutaxassis sifatidagi maqsadimiz hisoblanadi. Bu ilmiy tadqiqotda yapon tilidagi oziq ovqatga doir realiyalarni tarjimashunoslikning qaysi usulida tarjima qilsa samarali bo'lishi haqida ilmiy izlanish qilinadi.

Muallif ushbu ishda o'zbek tilidagi oziq-ovqatga bog'liq bo'lgan 5 ta realiyani tanlab oldi va buni 4 xil tarjima qilish usuli 借用翻訳 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o'ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so'z bilan berish), 同化 (realiyani

¹ Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kato Fumihikoning nutqidan. 14.11.2017. (Niponika gazetasi) 3-bet

tarjima qilinayotgan tildagi realiya bilan almashtirish usuli), 加筆(qisqartirish usuli), 解説(realialarni tavsiflab, izohlash yo‘li bilan tarjima qilish)da tarjima qildi va shu asosda so‘rovnoma o‘tkazdi. Bularning barchasi muallifning ishidir.

(1) Anvar uyiga qaytayotgan vaqtida do‘kondan qurt sotib oldi.

1. アンワルさんは家へ帰る時、店でしょっぱいチーズを買いました。

Bu gap 借用翻訳(tarjima qilinayotgan tilning madaniy o‘ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so‘z bilan berish) usulida tarjima qilindi. Bu gapning o‘ziga xosligi “qurt”ning “しょっぱいチーズ” (shoppai chi-zu), ya’ni “sho‘r pishloq” deb tarjima qilinishidir. Lekin qurt va pishloq umuman bir-biridan farq qiladi.

2. アンワルさんは家へ帰る時、店で乾燥ヨーグルトを買いました。

Bu gap 同化 (realiyani realiya bilan berish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o‘ziga xosligi “qurt”ning “乾燥ヨーグルト” (kansou yo-guruto), ya’ni “quritilgan yogurt” deb tarjima qilinishidir. Lekin qurt va quritilgan yogurt ta‘m jihatdan bir-biridan farq qiladi. Yaponiyada Xitoydan keltirilgan qurutilgan yogurtlar iste‘mol qilinishi aniqlandi. Lekin bu yogurtlar va o‘zbek tilidagi qurt bir biridan farq qiladi.

3. アンワルさんは家へ帰る時、店でヨーグルトを買いました。

Bu gap 加筆 (qisqartirish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o‘ziga xosligi “qurt”ning “ヨーグルト” (yo-guruto), ya’ni “yogurt” deb tarjima qilinishidir. Lekin “qurt” va “yogurt” ta‘m va shakl jihatdan bir biridan farq qiladi.

4. アンワルさんは家へ帰る時、店でクルトというしょっぱくて乾燥ヨーグルトのような食べものを買いました。

Bu gap 解説 (realialarni tavsiflab, izohlash yo‘li bilan tarjima qilish) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o‘ziga xosligi “qurt”ning “クルトというしょっぱくて乾燥ヨーグルトのような食べるもの”, ya’ni “qurt deb atalgan sho‘r va qurutilgan yogurtga o‘xshash yeydigan narsa” deb tarjima qilinishidir. Yaponlarda “qurt” yo‘q, lekin uni nimaligi haqida tushuncha bera olindi. Bu gapni eshitgan yaponlar qurt haqida tasavvur hosil qila oladilar.

(2) Azizbek o‘rtoqlariga “ovqatdan oling” dedi.

1. アジズベックさんは友達に料理を食べてくださいと言いました。

Bu gap 借用翻訳 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o‘ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so‘z bilan berish) usulida tarjima qilindi. Bu gapning o‘ziga xosligi “ovqatdan oling”ning “料理を食べてください” (ryouri tabete kudasai), ya’ni “ovqatdan yeng” deb tarjima qilinishidir. Bu gapda ma’noviy jihatdan gaplar bir xil bo‘lgan.

2. アジズベックさんは友達に料理を食べてくださいと言いました

。 Bu gap 同化 (realiyani realiya bilan berish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "ovqatdan oling"ning "料理を食べてください" (ryouri tabete kudasai), ya'ni "ovqatdan yeng" deb tarjima qilinishidir. Bu gapda ma'noviy jihatdan gaplar bir xil bo'lgan.

3. アジズベックさんは友達に料理を食べてくださいと言いました。

Bu gap 加筆 usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "ovqatdan oling"ning "料理を食べてください" (ryouri tabete kudasai) ya'ni "ovqatdan yeng" deb tarjima qilinishidir. Bu gapda ma'noviy jihatdan gaplar bir xil bo'lgan.

4. アジズベックさんは友達に料理を食べてくださいと言いました。

Bu gap 解説 usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "ovqatdan oling"ning "料理を食べてください" (ryouri tabete kudasai) ya'ni ovqatdan yeng deb tarjima qilinishidir. Bu gapda ma'noviy jihatdan gaplar bir xil bo'lgan.

(3) Ma'ruf qaynatilgan suvga novvot solib ichdi.

1. マルフさんはお湯に砂糖を入れて飲みました。

Bu gap 借用翻訳 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o'ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so'z bilan berish) usulida tarjima qilindi. Bu gapning o'ziga xosligi "novvot"ning 砂糖 (satou) ya'ni shakar deb tarjima qilinishidir. Lekin novvot va shakar bir biridan farq qiladi.

2. マルフさんはお湯に氷砂糖を入れて飲みました。

Bu gap 同化 (realiyani realiya bilan berish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "novvot"ning 氷砂糖 (koorizatou) ya'ni "kristal ta'm beruvchi narsa" deb tarjima qilinishidir. Koorizatou shakl jihatdan novvotga o'xshaydi. Lekin rangi, tayyorlanish uslubi va iste'mol maqsadi bir-biridan farq qiladi. Koorizatou asosan alkogol ichimliklarini tayyorlashda ishlatiladi. Novvot esa choyga shirin ta'm berish va tabobat maqsadida ishlatiladi.

3. マルフさんはお湯に砂糖を入れて飲みました。

Bu gap 加筆 (qisqartirish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "novvot"ning 砂糖 (satou) ya'ni shakar deb tarjima qilinishidir. Lekin novvot va shakar bir biridan farq qiladi.

4. マルフさんはお湯にノヴォトという砂糖から作られた硬い砂糖菓子を入れて飲みました。

Bu gap 解説 (realialarni tavsiflab, izohlash yo'li bilan tarjima qilish) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "novot"ning "ノヴォトという砂糖から作られ

た硬い砂糖菓子” (Novvotu toiu satou kara tsukurareta katai satougashi) ya’ni, “Novvot deb ataladigan shakardan tayyorlanadigan qattiq shakarli shirinlik ”deb tarjima qilinishidir. Yaponlarda “Novvot” degan narsa yo’q. Lekin uni nimaligi haqida tushuncha bera olindi. Bu gapni eshitgan yaponlar novvot haqida tasavvur qila oladilar.

(4) Muhammad turpni juda yaxshi ko’radi.

1. ムハンマドさんは大根が大好きです。

Bu gap借用翻訳 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o’ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so’z bilan berish) usulida tarjima qilindi. Bu gapning o’ziga xosligi“turp”ning 大根 (daikon) ya’ni daikon (Yaponiyadagi turpga o’xshash sabzavot) deb tarjima qilinishidir. Shakl jihatidan bir biriga o’xshash. Lekin rangi va mazasi jihatidan turp va daikon bir biridan farq qiladi.

2. ムハンマドさんは大根が大好きです。

Bu gap 同化(realiyani realiya bilan berish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o’ziga xosligi“turp”ning 大根 (daikon) ya’ni daikon (Yaponiyadagi turpga o’xshash sabzavot) deb tarjima qilinishidir. Shakl jihatidan bir biriga o’xshash. Lekin rangi va mazasi jihatidan turp va daikon bir biridan farq qiladi.

3. ムハンマドさんは大根が大好きです。

Bu gap加筆 (qisqartirish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o’ziga xosligi“turp”ning 大根 (daikon) ya’ni daikon (Yaponiyadagi turpga o’xshash sabzavot) deb tarjima qilinishidir. Shakl jihatidan bir biriga o’xshash. Lekin rangi va mazasi jihatidan turp va daikon bir biridan farq qiladi.

4. ムハンマドさんはトルプという大根に似ている野菜が大好きです。

Bu gap解説usulida tarjima qilingan. Bu gapning o’ziga xosligi “turp”ning “トルプという大根に似ている野菜” (torupu toiu daikon ni nite iru yasai) ya’ni, “Trup deb ataladigan daikonga o’xshash sabzavot ”deb tarjima qilinishidir. Yaponlarda “Trup” degan narsa yo’q. Lekin uni nimaligi haqida tushuncha bera olindi. Bu gapni eshitgan yaponlar trup haqida qisman tasavvur qila oladilar.

(5) Men tushlikka suyuq lag’mon yeyman.

1. 私は昼ご飯にラーメンを食べます。

Bu gap借用翻訳 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o’ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so’z bilan berish) usulida tarjima qilindi. Bu gapning o’ziga xosligi“suyuq lag’mon”ning ラーメン (ra-men) ya’ni “lag’mon” deb tarjima qilinishidir. Shakli o’xshash bo’ladi. Lekin ta’mi farq qiladi.

2. 私は昼ご飯に蕎麦を食べます。

Bu gap 同化 (realiyani realiya bilan berish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "suyuq lag'mon"ning 蕎麦 (soba) ya'ni "soba" (ovqat nomi) deb tarjima qilinishidir. Shakli o'xshash bo'ladi. Lekin rangi va ta'mi farq qiladi.

3. 私は昼ご飯にラーメンを食べます。

Bu gap 加筆 (qisqartirish usuli) usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "suyuq lag'mon"ning ラーメン (ra-men) ya'ni "lag'mon" deb tarjima qilinishidir. Shakli o'xshash bo'ladi. Lekin ta'mi farq qiladi.

4. 私は昼ご飯にラーメンに似ているウズベキスタンの料理を食べます。

Bu gap 解説 usulida tarjima qilingan. Bu gapning o'ziga xosligi "suyuq lag'mon"ning "ラーメンに似ているウズベキスタンの料理" (Ra-menni nite iru Uzubekistanno ryouri) ya'ni, "Ra-menga o'xshaydigan o'zbek milliy ovqati" deb tarjima qilinishidir. Bu gapni eshitgan yaponlar novvot haqida tasavvur qila oladilar.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar natijasidan kelib chiqib, 借用 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o'ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so'z bilan berish) orqali tarjima qilingan gapni o'quvchi uchun tushunish eng qiyinligi aniqlandi.

同化 (realiyani realiya bilan berish usuli) usulida tarjima qilingan gapni o'qigan kishilarning tushunish va anglash darajasi har xil bo'ldi. Barcha toifalar ko'rib chiqildi. Yaxshilab taqqoslab ko'rilganda, ushbu uslubda tarjima qilinganda kitobxon o'zining tasavvur qobiliyati yaxshiligi tufayli gaplarni yaxshi tushunganini bilib olishimiz mumkin. Ushbu usulda tarjima qilingan gaplarni yaxshi tushunmagan kitobxonlarning aynan nima sababdan yaxshi tushunmaganlarini aniqlash juda muhim edi. Afsuski, bu ilmiy ishda aynan shu xususiyat o'rganilmay qoldi.

加筆 (qisqartirish usuli) tarjima usuli ham 同化 (realiyani realiya bilan berish usuli) usuliga o'xshab ketadi. Tarjima matnni yaxshi tushunmaganlar soni nisbatan ko'proq. 解説 (tarjima usulida tarjima qilingan beshala gapda ham gaplarni Yaxshi tushundim deb belgilaganlar soni ko'pligi ko'zga tashlanib turibdi.

Ilmiy tahlildan umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, 借用 (tarjima qilinayotgan tilning madaniy o'ziga xosligi jihatdan kelib chiqib shu tildagi mos so'z bilan berish) bilan tarjima qilingan gaplar kitobxon uchun tushunish eng qiyin bo'lgan gaplar hisoblanadi. 解説 (realiyalarni tavsiflab, izohlash yo'li bilan tarjima qilish) tarjima usuli kitobxonlar uchun eng tushunish oson bo'lgan tarjima usuli ekanligi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1983.
2. Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kato Fumihikoning nutqidan. 14.11.2017. (Niponika gazetasi) 3-bet

